

ISLOM MOLIYASIGA OID QARASHLARNIMNG TAKOMILLASHUV JARAYONLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15709305>

SH.Tuychiyev

"Hadis va islom tarixi fanlari" kafedrasi o'qituvchi-stajyori

E-mail:shahzodtuychiyev20@gmail.com

Tel: +99897 575 7636

Islom moliya tizimining jamiyatga ma'lum shakldagi tarixi o'tgan asrning ikkinchi yarmida rivojiana boshladi. Islomiy bank tizimining muvaffaqiyatli rivojlanishi Misrdagi M. Ghamr jamg'arma banki hamda 1963 yilda Malayziyada tashkil etilgan Tabun Haj Lembagani tashkil qilish bilan boshlandi, deb hisoblash mumkin.

Islomiy moliyaviy tizimning kelajagi tez o'zgarayotgan moliyaviy dunyodagi o'z maqsad va vazifalarini qay darajada uddalashiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Zamonaviy sharoitda ushbu tizim rivojlanishining asosiy omillaridan biri - moliyavi xizmatlarni taqdim etish jarayonida yuzaga keluvchi xatarlarni islomiy muassasa tomonidan samarali boshqarish xususiyati hisoblanadi. Mazkur sanoatning keyingi rivojlanishi islomiy moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi yirik moliya korporatsiyalari va mamlakatlarning bir qator siyosiy va iqtisodiy qarorlariga umumiqtisodiy dunyoqarash qiyofasinning jahon iqtisodiyoti doirasida kamayib borayotgan, real tovarlar va xizmatlar segmentini qo'llab quvvatlash foydasiga o'zgarishga bog'liqdir¹³².

Zamonaviy islom moliyaviy muassasalarining faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish uchun fiqhiy manbalarga asoslangan hukmlarni ishlab chiqish jiddiy va keng miqyosli fiqhiy izlanishlarni talab qiladi. Buning sababi shundaki, islom moliyaviy tizimi an'anaviy moliyaviy tizim bilan bir xil bozor sharoitlarida faoliyat olib boradi. Bu ikki tizimning yagona farqi foiz, qimor, g'arar kabi iqtisodiyot uchun zarar hisoblangan unsurlarni bartaraf etishlikdadir. Ammo oldin hech ko'rilmagan, yangi paydo bo'lgan masalalarning yechimini fiqhiy jihatdan hal etish mashaqqatini bilgan islom olimlari asrlar davomida muvaffaqiyatli tarzda qo'llanib kelayotgan fiqhiy qoidalardan bugungi kunda ham samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatishmoqda. Islom moliyasi, islom bank ishi va islom iqtisodiyotining boshqa barcha sohalarida yuzaga kelayotgan masalalarning

¹³²Baydaulet. E.A. Islomiy moliya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B.31.

yechimiga aksariyat hollarda «qavodi fiqhiya» deb nomlanuvchi fiqhiy qoidalar yordamida erishilmoqda.

Fiqhiy qoidalarning mohiyatini yaxshiroq anglash uchun «Mashaqqat osonlikni jalg qiladi» degan fiqhiy qoida misolida ba'zi mulohazalar bilan tanishsak. Ushbu qoida fiqhning barcha, jumladan, ibodat, muomalat va jinoyat boblarida uchraydigan turli-tuman masalalarni qamrab oluvchi shariatda ko'zda tutilgan ruxsatlarni va bu ruxsatlarning berilish tamoyilini ifodalaydi. Barchaga ma'lumki, shariat qiyinchiliklarga undamaydigan, maqsadi osonlikka erishish bo'lgan ahkomlar uzra barpo bo'lgandir. Agar bironta qiyin va muammoli vaziyat yuzaga kelsa, shariat ahkomlari ushbu muammoning yengil, shu bilan birga, barcha uchun manfaatli bo'lgan yechimini taqdim etishga harakat qiladi. Bu qoidadan anglashiladiki, qiyinchilik shariatning yengillashtiruvchi jihatlarini ishga tushiradi va mashaqqat tug'ilganda ushbu qoidani ishlatishga sabab ham paydo bo'ladi. Biroq muammoni mazkur qoida yordamida hal qilish o'sha narsaga zaruriy ehtiyoj bo'lsagina va umumiylardan istisno tariqasidagina mumkin bo'ladi.

Ammo Islom dinining avvalgi asrlarida islomiy iqtisodiy tushunchalar mustaqil holatda foydalanilgan bo'lmasada va iqtisod tushunchasi bilan boshqa islomiy hayot tarzi tushunchalari orasi ajratilmagan bo'lsada, amalda bajarishda va real tatbiq etish jarayonida iqtisodning barcha tomonlarini o'z ichiga qamrab olgan. Misol qilib aytiladigan bo'lsa, zakot va unga o'xshash boshqa moliyaviy farzlar shariat yo'li bilan yig'ilgan. O'lja va g'azotlarda tushgan g'animatlar faqir va g'oziylardan iborat haqdorlar o'rtasida taqsimlangan va beshdan biri foydalanish va harajat qilishni tartibga solish uchun baytulmol (umumiylar xazina)ga qo'yilgan. Shunday qilib, amalda tatbiq qilish voqelikda paydo bo'ladigan murakkab va jiddiy moliyaviy mushkilotlar paytida islomiy iqtisodiy tushunchani o'rganishga va u haqda bahs olib borishga keng eshiklar ochib berdi.

Darhaqiqat, islom fiqhida yozilgan moliyaviy, iqtisodiy bahs va darsliklardan iborat asarlarni ko'pligidan varaqlab o'qib chiqish yoki sanab sanog'iga etish juda mushkul ish. Namuna sifatida islom shariatida, xossatan, mol-mulk ahkomlari to'g'risida eng oldingi yozilgan ba'zi bir ko'zga ko'ringan islomiy asarlarni sanab o'tadigan bo'lsak, Abu Ubayd Qosim ibn Salomning(774-838) "Kitob al-amvol" kitobi, Yahyo ibn Odam (757-818) (va Abu Yusuf Yaqub ibn Ibrohimlarning "Al-Xaroj" kitoblari, ibn Xaldunning (1332-1406) "Muqaddima" kitobi va boshqalar. Mazkur yozilgan asarlar ichida eng mo'tabari Abu Yusuf (r.a)ning (731-798) "Al-Xaroj" kitobi bo'lib, xalifa Xorun Rashid davrida qozilar xaroj va shunga o'xshash barcha moliyaviy muammolarning echimida ushbu kitobga murojaat qilishgan va savollariga batafsil suratda javob topishgan. Qolaversa, Ibn Xaldunning iqtisodga

tegishli "Muqaddima" asari g'arbliklar faxr bilan "G'arb iqtisodining otasi" deb tilga oladigan Adam Smit tug'ilmasidan to'rt asr burun, ya'ni hijriy hisob bilan sakkizinch yilda katta e'tibor qozongan va murojaat qilinadigan manbalardan bo'lgan.

Ma'lumki, islom iqtisodining o'zagi Qur'on, sunnat va jamlangan fiqhiy hukmlardan iboratdir. Shularga suyangan holda ishlab chiqilgan shar'iy usuliy qoidalar esa islom jamiyatida sodir bo'ladigan yangi-yangi muammo va echimlarga bat afsil javob beradi.

Islom iqtisodiy tizimi insoniyatning barcha hojatlarini o'z ichiga to'la qamrab oluvchi umumiyl tizimdir. Chunki Islom dini umumiyl bo'lib, bandaning Alloh bilan bo'ladigan aloqalarini va jamiyatdagi insonlarning bir-birlari bilan bo'ladigan aloqalarini tartibga solib turadi. Bu nizom har xil aloqaviy qoidalarni, mulkiy, shaxsiy, adliyaviy, ijtimoiy ta'minotlar va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy, jamoaviy va yakka holatdagi ishlarning echimini bashariyatga taqdim qilib turadi.

Islom dini har xil bir-biridan farqlanuvchi iqtisodiy boshqaruvlarni o'z tarkibiga oluvchi muayyan qonun va printsiplar bilan kelgan vaqtidan boshlab, uning bu qoidalari Rasululloh (a.s)ning zamonlaridayoq diqqat bilan amalda tatbiq qilina boshladi. U Zoldan keyin islom tarixi davomida xulafoi roshidinlar, hokimlar va musulmon imomlari bir-birlaridan ajralib turadigan darajada qo'llab kelishgan.

E'tibor berib qarasak, islom iqtisodiyotining ikki xilligini, ya'ni soddarroq qilib aytsak ikki tomoni borligi ko'rildi:

A) Sobit turuvchi, ya'ni o'zgarmas tomon. Bu iqtisodiy qonun-qoida va printsiplar majmu'asidan iborat bo'lib, har bir zamon va har bir makon musulmonlari unga amal qilishlari lozimligi uchun Qur'on va sunnatda nasslar kelgan (ya'ni, aniq bayon qilingan). Misol qilib keltirsak Alloh taolo Qur'oni Karimda shunday deb marhamat qiladi:

} وَأَحَلَّ اللَّهُ الْبَيْعَ وَحَرَمَ الرِّبَا {

"Holbuki, Alloh bay'ni (savdoni) halol, riboni esa harom qilgan" (Baqara surasi, 275-oyat)¹³³. Bu o'zgarmas moliyaviy qoida bo'lib, hech bir zamon va makonda uni o'zgartirishga hech kimning huquqi yo'q (ya'ni, riboni halol va savdoni harom qilolmaydi). Yana boshqa oyat misolida shunday degan:

كَيْ لَا يَكُونُ دُولَةٌ بَيْنَ الْأَغْنِيَاءِ مِنْكُمْ

"Sizlardan boy-badavlat kishilar o'rtasidagina qo'lma-qo'l bo'lib yuraveradigan narsa bo'lib qolmasligi uchun"¹³⁴. Bu oyatda o'sha davrda tushgan o'ljalarni qanday taqsimlash lozimligi bayon qilinyapti. Oyatning davomida u

¹³³ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri // A.Mansur tarjimas. – T. : TIU, 2004. – B. 388.

¹³⁴ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri // A.Mansur tarjimas. – T. : TIU, 2004. – B. 388.

narsalarga kimlar haqli ekani zikr qilinadi. Yuqoridagi va shular singari boshqa umumiy nasslar (Qur'on matnlariga nass deyiladi) umumiy normalar bilan cheklangan erkinlik prinsiplari, iqtisodiy taqsimlashni amalga oshiruvchi va xususiy mulkchilik prinsiplari kabi ba'zi qoidalarni ta'kidlab amalda joriy qiladi. Bu kabi qoidalalar sobit bo'lib, vaqtlar, zamonlar va insonlar o'zgarishi bilan o'zgarmaydi. Diqqat bilan qaralsa bunday qoidalalar umumiy bo'lib, kam sonni tashkil qiladi va har qanaqa jamiyatning har qanday hojatlariga to'sqinlik qilmaydi. Bu islam iqtisodining eng katta sirlaridan va uni boqiyligidan, deb hisoblanadi. Zero islam iqtisodining rivojlanish darajasi haqida gapirmasak ham uni har bir zamon va har bir makonga solahiyatligrini ko'riladi.

B) O'zgaruvchi taraf. Bu uslublar, amaliy reja va yo'nalishlar hamda iqtisodiy echimlar bo'lib, ularni har bir islomiy jamiyatdagi davlat va hukumatlar bu moddiy voqealikda o'zlarining iqtisodiy siyosiy printsiplarini yaratish uchun iqtisodiy hamkorlik doirasida qabul qiladi. Bu ishlab chiqqan qoidalari nasslarda ochiq oydin kelmasada, shariat ahkomlariga muxolif bo'lmaydi. Yana shariatdagi usuliy qoidalarga asoslanib chiqariladigan prinsiplarni ham misol qilsa bo'ladi.

Bugungi kunda shunday shaxsiy huquqlar paydo bo'ldiki, ular aslida ayn (moddiy narsa) emas, lekin bozorlarda savdo yo'li bilan oldi-berdi qilish keng tarqalgan, dunyoviy qonunlar ham ularning ayrimlariga ruxsat bergen va ayrimlarini man qilgan. Ammo bozorlar bu turdag'i muomala(oldi-berdi)lar bilan to'lib toshgan. Bunga turar joy va do'konlarni foydalanishga berish, maxsus savdo nomi yoki o'ziga xos savdo belgisidan (TradeMark) foydalanish huquqi, savdo ruxsatnomasi (License), hozirgi zamonaviy tilda intellektual mulk (IntellectualProperty) deb atalmish mualliflik huquqi, ixtiro huquqi, rassomning o'zi chizgan asarlaridagi huquqini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Bu huquqlarning barchasi hozirgi zamonaviy savdo urfida egalik hisoblanib, ularda shaxsiy mol-mulklarning hukmlari yurgiziladi, chunki ular ham moddiy mol-mulklar va aynlar bilan bab-barobar sotiladi, xarid qilinadi, ijara beriladi, hadya qilinadi, meros qilib qoldiriladi.

Jamiyat oldidagi masala islam shariatida bu huquqlarni sotish, harid qilish, yoki qandaydir mashru' yo'llar bilan ayrboshlash durust bo'ladigan mollar, deb e'tiborga olish joiz yoki joiz emasligini aniqlash.

Bu masala qadimgi faqihlar davrida bunday keng tarzda mavjud bo'lman. Tabiiyki, ularning kitoblarida ham masalaning bizning asrimizdagi ko'rinishlariga tegishli xos javoblar yo'q. Lekin u zotlar ko'plab huquqlar haqida, o'z zamonalarida mavjud bo'lgan yoxud tasavvur qilish mumkin bo'lgan turlarini ayrboshlash masalasi borasida so'z yuritishgan. Ularning ba'zilari bunday huquqlarni ayrboshlashni butunlay man etgan bo'lsa, ba'zilari bularning ayrim ko'rinishlarini

joiz sanagan. Agar faqihlarning bu borada yozganlarini yaxshilab o'rganib chiqadigan bo'lsak, huquqlarning turlari ko'p ekanligini vabu borada faqihlarning fikrlari ham turli bo'lganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Avvaliga oldingi fuqaholarning kitoblaridagi bu mavzuga tegishli ma'lumotlarni o'rganib chiqsak.

Fuqaholar ayirboshlash joiz yoki joizmasligi haqida so'z yuritgan, bahs qilgan huquqlarni avvalo ikki qismga bo'lish mumkin:

- shar'iy huquqlar. Bular Shori' (Alloh taolo) tomonidan sobit bo'lgan, uning s obit bo'lishida qiyosning daxli yo'q.

- urfiy huquqlar. Bular urf hukmi bilan sobit bo'lgan, shariat ham e'tirof etgan¹³⁵.

Bu ikki qismdan har biri yana ikki qismga bo'linadi:

- egasidan zararni bartaraf etish uchun mashru' bo'lgan huquqlar;

- asl, ya'ni mustaqil ravishda mashru' bo'lgan huquqlar.

Asolatan mashru' bo'lgan huquqlar bir necha qismlarga bo'linadi:

- narsalarning o'zidagi doimiy manfaatlardan iborat bo'lgan huquqlar. Bularga haqqul-murur (yo'ldan o'tish huquqi), haqqush-shirb (suv tarmog'idan suv ichish huquqi), haqqut-tasyil (suv oqizish, kanalizatsiyadan foydalanish huquqi) misol bo'la oladi;

- biror muboh narsani birinchi bo'lib egalash bilan sobit bo'ladigan huquqlar. Bular asbaqiyya (birinchilik) huquqi, deb ataladi.

Biror inson bilan shartnomaga tuzish yoxud uni uzaytirish huquqidan iborat bo'lgan huquqlar. Bunga er, turar joy, do'konlarni ijaraga olish huquqi misol bo'ladi.

Huquqlarni ayirboshlashga keladigan bo'lsak, bu ikki yo'l bilan bo'lishi mumkin.

Birinchisi savdo yo'li bo'lib, buning ma'nosi sotuvchining mulkidagi narsani xaridorga ko'chirib o'tkazishdan iborat.

Ikkinchisi sulh va tanozul (voz kechish) yo'li. Buning ma'nosi-nozil(huquqidan kechuvchi) o'z huquqidan voz kechadi, lekin bu bilan haq manzul lah(nozildan voz kechishni so'ragan shaxs)ga ko'chib o'tmaydi, faqatgina nozilning manzul lahga nisbatan raqobati yo'qoladi.

Imom Qorofiy (1228-1285) bu ikki yo'l orasidagi farqni quyidagicha bayon qilganlar: "Bilingki, huquqlar va mulklardagi tasarruf naql(ko'chirish, o'tkazish) va isqot(voz kechish)ga bo'linadi. Naql esa, sotish, qarz singari o'rniga evaz olinadigan va vasiyat, hadya kabi o'rniga evaz olinmaydiganga bo'linadi".

¹³⁵ Muhammad Taqiy Usmoniy. Buhus fi qozoya fiqhiiyya mu'asara. – Damashq: Dor al-qalam, 2009. – B. 77.